AGROSANOAT MAJMUASIDA KLASTER TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI

Berdimurodov Usman Suyunovich
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti, iqtisod fanlari doktori (PhD)
DOI : 10.67620/TIPUjournal.330004

ANNOTATSIYA

Maqolada agrosanoat majmuasida klaster tizimining tarkibiy tuzilishi, uni tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari hamda iqtisodiy samaradorlikka ta'sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilingan. Shuningdek, davlat tomonidan tartibga solish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, mahsulotlarni qayta ishlash va qiymat zanjirini samarali tashkil etish masalalari yoritilgan. Agrosanoat klasterlarining hududiy iqtisodiy rivojlanish, aholi bandligi, raqobatbardoshlik va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi ahamiyati asoslangan.

KALIT SÝZLAR

agroklaster, klaster tizimi, qishloq xo'jaligi, iqtisodiy samaradorlik, innovatsiya, raqobatbardoshlik, investitsiya.

ABSTRACT

The article analyzes the structure of the cluster system within the agro-industrial complex, the theoretical and practical aspects of its organization, and the key factors influencing economic efficiency. Furthermore, it addresses issues related to state regulation, the adoption of innovative technologies, product processing, and the efficient organization of the value chain. The study substantiates the importance of agro-industrial clusters for regional economic development, employment, competitiveness, and the assurance of food security.

KEY WORDS

agro-cluster, cluster system, agriculture, economic efficiency, innovations, competitiveness, investments.

АННОТАЦИЯ

V state analiziruetsya struktura klasternoy sistemы v agropromыshlennom komplekse,

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

agroklaster, klasternaya sistema, selskoe

teoreticheskie i prakticheskie aspekty yee organizatsii, a takje osnovnye faktory, vliyayuщie na ekonomicheskuyu effektivnost. Krome togo, osveщayutsya voprosy gosudarstvennogo regulirovaniya, vnedreniya innovatsionnyx texnologiy, pererabotki produksii i effektivnoy organizatsii sepochki sozdaniya stoimosti. Obosnovyvaetsya znachimost agropromyshlennyx klasterov dlya regionalnogo ekonomicheskogo razvitiya, zanyatosti naseleniya, konkurentosposobnosti i obespecheniya prodovolstvennoy bezopasnosti.

xozyaystvo, ekonomicheskaya effektivnost, innovatsii, konkurentosposobnost, investitsii.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi PQ-4633-son qarorida qishloq xo‘jaligida klaster tizimini rivojlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mahsulotlarni chuqur qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilangan. Ushbu hujjatda zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, investitsiyalarni faol jalb qilish hamda ishlab chiqarish va qayta ishlash jarayonlarini yagona qiymat zanjiri asosida tashkil etishga alohida e’tibor qaratilgan. Mazkur yondashuv agrosanoat majmuasining iqtisodiy samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish uchun muhim institutsional asos yaratadi. [1].

Tadqiqot maqsadi.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini bozor ist’emol talablari asosida tashkil etish bilan birga bu ishlab chiqish jarayoni bozor talablariga asosda boshqaruvini tashkil etish va uni bozor qonunlari asosida takomillashtirib borish zarur.

Qishloq xo‘jaligida progressiv ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etishning samarali shakllaridan biri agrosanoat majmuasi asosida shakllangan agrosanoat klasterlari faoliyatini rivojlantirish hisoblanadi. Bunda ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil etish va boshqarish darajasi klaster faoliyatining iqtisodiy samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi, avvalo, davlat tomonidan ishlab chiqilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy siyosat hamda uni amalga oshirishning samarali boshqaruv mexanizmlariga bog‘liq. Ushbu jarayon makroiqtisodiy tarmoqlar bilan bir qatorda, mikroiqtisodiy darajadagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida ham o‘z aksini topadi. Har bir ishlab chiqarish subyekti o‘zining

strategik, joriy va operativ maqsadlaridan kelib chiqib, ishlab chiqarish me’yorlari va iqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida faoliyatini rejalashtiradi hamda boshqaradi.

Shu nuqtayi nazardan, agrosanoat klasterlarida ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash va realizatsiya jarayonlarini yagona tizim asosida tashkil etish qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining samaradorligi, raqobatbardoshligi va barqarorligini oshirishga xizmat qiladi [2].

Iqtisodiy mintaqalarda agrosanoat majmuasida ishlab chiqarish klasteri asosida tashkil topishiga uni iqtisodiy tartibga solish (1-rasmda) keltirilgan.



1-rasm Davlat boshqaruvining huquqiy asoslari [3]

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayonini agrosanoat majmuasi asosida tashkil etishda agrosanoat klasterini shakllantirish iqtisodiy mintaqalarda mehnat resurslarining bandligini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, hududda mahsulot ishlab chiqarish hajmining o‘sishi, mahsulot sifat darajasining yaxshilanishi hamda iste’mol bozorlarida xaridorgir va sifatli iste’mol mahsulotlariga bo‘lgan talabni qondirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuningdek, mahsulotlarni iste’molchilarga talab darajasidagi va raqobatbardosh narxlarda taklif etish hajmining ortishiga zamin yaratadi.

Agrosanoat majmuasini klaster asosida tashkil etish, uni qonunchilik va normativ-huquqiy hujjatlar asosida tartibga solib borish hamda faoliyatini muvofiqlashtirish agrosanoat klasterlarining barqaror rivojlanishini ta’minlashda

muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, bunday tizim qishloq aholisi uchun munosib yashash va mehnat qilish sharoitlarini yaratish, ularning daromad manbalarini kengaytirish hamda ijtimoiy farovonligini oshirishga xizmat qiladi.
Shu nuqtai nazardan, agrosanoat majmuasini qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini ta’minlovchi, jamoaviy mehnatga, zamonaviy texnika va texnologiyalarga asoslangan, o‘zaro bog‘liq ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sub’ektlarini birlashtiruvchi progressiv va istiqbolli xo‘jalik tizimi sifatida qarash mumkin. Mazkur tizimni agrosanoat klasterining iqtisodiy mohiyati va tashkiliy asosi sifatida baholash maqsadga muvofiq.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayonini iqtisodiy mintaqalarning tabiiy-iqlim sharoitlarini inobatga olgan holda agrosanoat klaster usulida tashkil etish uning samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Bunda ishlab chiqarish jarayoni ko‘pchilikning mulki va investitsion mablag‘lariga asoslangan holda shakllanishi mumkin.

Agrosanoat klasterining faoliyati davlat tomonidan qabul qilinadigan qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar asosida tartibga solib boriladi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish jarayonining tashkil etilishi davlat muassasalari tomonidan tasdiqlangan ishlab chiqarish me’yorlari va normativlari asosida amalga oshiriladi. Garchi klaster faoliyati ko‘pchilikning mulkiy manfaatlari va investitsiya mablag‘lariga asoslangan bo‘lsa-da, uning boshqaruvi umumiy ijtimoiy xususiyatga ega bo‘lgan davlat qonunlari va me’yorlari bilan muvofiqlashtirib boriladi.. Bular qo‘yidagilardan iborat:

- qishloq xo‘jaligi sohalarida ishlab chiqarilayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining iqtisodiy mintaqalar va Respublika milliy iqtisodiyotini rivojlantirishdagi o‘rni;
- iqtisodiy mintaqalarda ishlab chiqarilayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining mamlakat bo‘yicha ishlab chiqarilayotgan yalpi ichki mahsulot tarkibidagi umumiy hissasi;
- qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayonida iste’mol uchun zarur bo‘lgan oziq-ovqat, kiyim-kechak hamda sanoat korxonalari uchun zarur xomashyo va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini mamlakatning ichki ishlab chiqarishi hisobidan ta’minlash darajasining oshib borishi. Bu esa mazkur tarmoqning mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini ta’minlashdagi ahamiyatini oshirib, iqtisodiyotning samarali va barqaror rivojlanishiga, shuningdek, mamlakatning siyosiy va iqtisodiy mustaqillik darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi. [4].
- agrosanoat majmuasida ishlab chiqarish jarayonini iqtisodiy mintaqalarda klaster usulida samarali tashkil etish va barqaror rivojlantirib borish uchun davlat tomonidan ushbu ishlab chiqarish usuliga zarur bo‘lgan zamonaviy

texnika va texnologiyalar bilan ta’minlash tizimini tashkil etish zarur. Bu, o‘z navbatida, agrosanoat majmuasida ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini oshirish va uning barqaror rivojlanishini ta’minlash imkonini beradi.

- qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining ushbu yangi innovatsion shaklini — agrosanoat klasterini iqtisodiy mintaqalarda tashkil etishda davlat boshqaruvi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda davlatning boshqaruv tashkilotlari tomonidan qabul qilingan qonunlar va normativlarga asoslangan holda agrosanoat klasterlari faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish tizimini yo‘lga qo‘yish zarur.

Agrosanoat klasterini tashkil etish va uning barqaror rivojlanishini ta’minlashda iqtisodiy mintaqalar darajasida davlat tomonidan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish bilan bog‘liq byudjetdan tashqari fondlar mablag‘laridan samarali foydalanish zarur.

Shu bilan birga, iqtisodiy mintaqalar byudjetidan nafaqat mintaqalar darajasida moliyalashtirishga kiritilgan ob’ektlarni, balki agrosanoat klasteri asosida ishlab chiqarish jarayonining barqaror va samarali rivojlanishini ta’minlovchi ishlab chiqarish hamda ijtimoiy sub’ektlarni ham moliyalashtirib borish maqsadga muvofiq.

TAHLIL VA NATIJALAR. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, korporativ kredit tashkilotlarining qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish va moliyaviy qo‘llab-quvvatlashdagi ishtiroki muhim iqtisodiy ahamiyatga ega. Mazkur tajribalardan foydalangan holda Respublika miqyosida korporativ kredit mablag‘larini shakllantirish va ularni qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga yo‘naltirish mexanizmlarini takomillashtirish mumkin. Bunda markaziy Respublika darajasida davlat byudjetidan tashqari mablag‘lar, bank zaxiralari hamda xususiy jamg‘armalar hisobidan moliyalashtiriladigan maxsus tashkilotni shakllantirish va uning mintaqaviy vazifalarini iqtisodiy mintaqalar darajasidagi qishloq xo‘jaligi agrobanklari orqali amalga oshirishni tashkil etish maqsadga muvofiq.

Agrosanoat majmuasi asosida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini samarali rivojlantirib borish, avvalo, ishlab chiqarish jarayonini strategik tarzda boshqarishga bog‘liq. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini agrosanoat majmuasi asosida umumlashgan yaxlit tizim sifatida tashkil etish va uni agrosanoat klasteri usulida olib borish iqtisodiy mintaqalarning samarali va barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi. [5].

XULOSA

- Iqtisodiy mintaqalarda agrosanoat klasterini tashkil etish asosida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirishning samarali shakllarini shakllantirish va uni innovatsion boshqaruv mexanizmlari asosida amalga oshirish zarur. Bunda

hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy holatidan kelib chiqqan holda ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

- Agrosanoat klasteri asosida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish har bir iqtisodiy mintaqaning o‘ziga xos iqtisodiy va ijtimoiy holatini hisobga olgan holda davlat hamda mahalliy boshqaruv tashkilotlari va muassasalari tomonidan muvofiqlashtirilib va tartibga solib borilishi maqsadga muvofiq.

- Agrosanoat klasteri asosida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini barqaror va samarali rivojlantirishning asosiy maqsadi, shartlari va mexanizmlari ishlab chiqarishning barqarorligini ta’minlash bilan bir qatorda, aholining qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirishga yo‘naltirilishi lozim. Shu bilan birga, ishlab chiqarilayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talabning ortib borishini ta’minlash, ularning xaridorgirligi va bozordagi raqobatbardoshligini oshirishga alohida e’tibor qaratish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYoTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 06.03.2020 yilda “Paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4633-son qarori
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son Farmoni "O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"
3. Muallif ishlanmasi
4. Ergashev R.X., Fayziyeva Sh.Sh., Xamrayeva S.N. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti. Darslik. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018.
5. Yakubov N.Q., Islomov A.Sh., Sunnatov M.A. *Mintaqaviy iqtisodiyot*. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019. – 228 b.